

ADRIAN HENRI SHE'RLARIDA FASLLAR TIMSOLINING RAMZIY MA'NOLARI**Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili integrallashgan kursi №3 kafedrasida katta o'qituvchisi

maqsadxonhakimova@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Adrian Henrining sevgi, hayot va vaqt mavzularini o'zida aks ettirgan she'rlari tahlil qilingan. She'rlardagi jonli obrazlar, chuqur hissiyot va avtobiografik yondashuv; fasllar timsoli orqali shoir inson hayoti va tuyg'ularining o'tkinchiligi hamda go'zalligini ochib berganligi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Liverpool shoirlari, adabiyot, san'at, she'r, rasm, rassom, shoir, surat.

Abstract. The article analyzes Adrian Henri's poetry, which reflects themes of love, life, and time. It examines how vivid imagery, deep emotions, and an autobiographical approach are present in his works, and how through the symbolism of the seasons, the poet reveals the transience and beauty of human life and emotions.

Keywords: Liverpool Poets, literature, art, poem, painting, artist, poet, picture.

Kirish. Adrian Henri — she'riyat, san'at va musiqani uyg'unlashtirish mahorati bilan tanilgan iste'dodli ijodkor. U nafaqat o'zining boy ijodi, balki Liverpool Poets harakatidagi faol ishtiroki orqali ham adabiyot va san'at olamida alohida o'rin egallaydi. Henri o'z she'rlarida sevgi, vaqtning o'tkinchiligi va inson his-tuyg'ularini hazil va so'z o'yinlari bilan ifodalab, kitobxonni hayotning nozik go'zalliklari va ijodning kuchi haqida o'ylashga undaydi. Uning ijodi nafaqat ingliz she'riyati, balki zamonaviy san'atning rivojlanishida ham ulkan ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Alohida tadqiqot doirasida o'rganilayotgan ushbu mavzuni yoritishda quyidagi adabiyotlar guruhiga murojaat qilingan:

1. Jahon adabiyotshunos olimlari ilmiy izlanishlari va tadqiqot natijalari;
2. Mamlakatimizda yozuvchi va shoirlarning badiiy mahorati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida strukturalistik, biografik, lingvistik, fenomenologik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Adrian Henrining she'rlari hayot nafasiga to'la, bu she'rlarni o'qiyotgan kitobxon dunyo go'zalliklarini ko'radi, yuragi g'amga to'lib, qayg'usiga bir hamdard topa olmayotgan bo'lsa, shoirning she'rlari uni yupatadi: Don't worry. Everything is going to be all right. Agar hayotda nimadir yomon bo'lsa, Come with me / And every poem I write / will have your name in it deydi u. Garchi hozir og'ir vaziyatga tushib qolgan bo'lsang ham, yashashda davom et, chunki kimdir senga muhtoj va odamzod o'zidan boshqa yana kim uchundir yashashi kerak va hammasi yaxshi bo'ladi, deya ishontiradi. Your face will be in every art gallery / Your name in every book of poetry / So / Don't worry / Everything's going to be all right. **(Don't worry/Everything is going to be all right).**

Adrian Henri "Xavotir olma, hammasi yaxshi bo'ladi" deb yozgan bo'lsa-da, o'zi bunga ishonmagan edi, deydi Roger McGough: "The Adrian I knew was not a tortured soul, for he considered himself a lucky man to have earned a living as a poet and an artist, but what gives his poems their distinctive character is not only painter's eye and the jazz enthusiast's ear, but the feeling that when he wrote "Don't worry, everything's

going to be all right” he didn’t really believe it.”¹Roger McGoughning so‘zlarida Adrian Henri shaxsiyati va faoliyatining murakkab tabiati aks etadi. Uning ta’kidlashicha, Adrian Henri hayotda baxtli – shoir va rassom sifatida umr kechirganidan minnatdor – bo‘lsa ham, ijodida allaqanday mavhumlik bor. Roger McGough Adrian Henrida “rassomning ko‘zi va jazz ixlosmandining qulog‘i” borligini aytganida, u shoirming badiiy sezgirligini, dunyoni jonli tasvir va ritm bilan idrok etish hamda ifodalash qobiliyatini e’tirof etadi. Biroq, “Xavotir olma, hammasi yaxshi bo‘ladi” deb yozganida, bunga o‘zi ishonmagan edi” jumalari Adrian Henri tabiatining yashirin tomoniga ishora qiladi. Ya’ni tashqaridan qaraganda hammasi yaxshidek ko‘rinsa-da, shoir fitratidagi skeptisizm, ishonchsizlik, shubha yoki ikkilanish u boshqalarni ishontirishga uringan taqdirda ham, o‘zi bu ishonchni to‘liq qabul qila olmaganligini ko‘rsatadi. Aslini olganda, Roger McGough Adrian Henri she’riyati nafaqat shoirming teran badiiy iste’dodi sabab, balki ruhiyatidagi optimizm va ishonchsizlik o‘rtasidagi nozik farq tufayli ham ajralib turadi, deb aytmoqda.

Chindan ham shoir kitobxonni ovutadi, ammo uning o‘zi ham qayg‘uda, o‘zini huddi hammasi yaxshidek tutishga urinadi, lekin aslida unday emas. U muhabbatini yo‘qotganidan azoblanmoqda, garchi ... qushlar kuylar edi..., ...tushlik ajoyib edi..., ...pecheniyelarni kulib paqqos tushirardim, ...soat 12 edi va men o‘zimni yaxshi his qilardim..., desa-da, har bir manzara va har bir joyning go‘zalligini tasvirlaganidan keyin yolg‘iz ekanligini esga oladi:

.../ there was/ apples/ oranges/ chocolates/ ... aftershave/ but no you.

.../ there was/ mincepies/ brandy/ nuts and raisins/ ... mashed potato/ but no you.

Yangi yil arafasi, hamma yoqda bayram shukuhi hukmron, biroq bularning hech biri ahamiyatga ega emas, shunchalar ahamiyatsizki, ular hatto katta harflarda yozishga ham arzimaydi. She’r so‘ngida shoir shunday deydi,

there’ll be/ Autumn/ Summer/ Spring/ ...and Winter/ all of them without you.

(Adrian Henri’s Talking After Christmas Blues)

Yil fasllari atoqli otlar kabi bosh harflar bilan boshlangan, chunki shoir uchun umrining mahbusasi bilan kechgan bahor, yozu kuzlari o‘z qiymatga ega. Lekin oshiq fasllarni teskari sanaydi: Kuz, Yoz, Bahor ... Qish. U o‘tgan umriga nazar soladi, kechagi kun – umr mezonidan boshlab, yoshlik yillari – hayot bahoriga xayolan borib qaytadi va endi yolg‘iz junjukadi – bu yog‘i Qish. Necha bor yil fasllari almashmasin, barchasi sensiz deydi u.

Spring Poem

Spring doing 100

down the motorway of winter

Bahor she’ri

Bahor 100 km/soat tezlik bilan

qish avtomagistralidan pastga tushib kelmoqda

Shoir nazdida qish go‘yo bir mamlakat va uning avtomagistrali bor. Bahor 100 km/soat tezlik bilan o‘sha yo‘ldan tushib kelmoqda. Qishning sovuq nafasidan butun tabiat qanchalar qattiq uyquga ketmasin va bu qanchalar uzoq davom etmasin, kunlarning birida atrofga nazar solgan inson bahor sezdirmasdan kelib, turfa bo‘yoqlari bilan chor atrofga rang sochganini ko‘radi. Uzoq kutilgan bahor kutilmaganda keladi. Biror nimani intiqlik bilan kutayotgan odam uchun go‘yo vaqt to‘xtab qolgandek va yoki imillayotgandek bo‘lsa, shoshayotgan kishi nazarida vaqt shiddat bilan yelib borayotgandek tuyuladi. Shuning uchun ham she’rda grammatik zamon kategoriyasi qo‘llanilmagan, shoir zamon tushunchasini she’rxonning o‘ziga qoldirishni ma’qul ko‘radi. Shu bilan birga bahor ham, inson umrining yoshlik yillari ham shunchalar tez o‘tib ketadiki, u go‘yo pastlikka enib borayotgan yo‘ldan katta tezlikda tushib kelayotgan mashinaga o‘xshaydi. Bahor va yoshlik sezdirmasdan o‘tib ketsa, yoz – inson bir muncha aqlan to‘lishgan davr – esda qoladi. O‘rta yosh davrida kishilar hayot tashvishlari bilan yelib-yuguradilar, ba’zida bu qum ustida yurishga o‘xshaydi: inson o‘zidan bir iz qoldirmay kundalik ikir-chikirlarga o‘ralashib, hayotining eng sermahsul yillarini sovurib yuboradi. Qumda qolgan izlarni esa

¹ Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965-2000. Liverpool University Press. 2007. p 98.

shamollar o'chirib tashlaydi. Tekis va ravon yo'ldan odimlab borayotgan odam tezroq olg'a ketadi. Qum ustida borayotgan kishi esa, fizikadagi ishqalanish qonunida aytilganidek, qanchalik ko'p urinmasin, ildamlashi qiyin bo'ladi. Yana shunisi ham borki, yoz kunlari qum ustida yurish yoqimli mashg'ulot. Issiqqina qum oyoqlarni qizdiradi, kuydiradi, har qadam bosganda barmoqlar orasidan, yonlaridan ko'pchib chiqib tanaga xush yoqadi.

Summer Poem

Remember

Walking in the sand

Inson umr o'tib borayotganligini anglagan chog'i, psixologiya ilmida "yoshga bog'liq stress" deb ataluvchi bir og'riq ko'z yosh bo'lib kuz yaproqlari kabi to'kiladi.

Autumn Poem

Her

tears

fell

Like autumn

Yoz she'ri

Esla

Qumda yurishni

Kuz she'ri

Uning

ko'z yoshlari

to'kiladi

Kuz kabi

Yig'layotgan erkak tasviri kishi ko'z o'ngida bir oz erish manzara yaratadi. Ayol ko'z yoshlarini esa biz oson va tabiiy qabul qilamiz. Shuning uchun ham shoir uchinchi shaxs egalik olmoshining her shakliga murojaat qiladi. Uning ko'z yoshlari yonoqlarini yuvib, dumalab tushyapti, ya'ni umr o'tib bormoqda, yillar kuzning xazonrez yaproqlari kabi to'kilmoqda. Ammo na kuz va na qahraton qish, sevimli kishisi yonida bo'lgan insonning quvonchini so'ndira olmaydi.

Winter Poem

When I'm with you

I'm as happy as the day is short

(Four Sason Poems)

Adrian Henri bu yerda "happy as the day is long" – juda xursand, o'ta baxtiyor, nihoyatda mamnun ma'nosini ifodalovchi frazeologik iborani "as happy as the day is short" tarzida o'zgartirib, so'z o'yini qilgan. Ya'ni long -uzun so'zi o'rniga short – qisqa deya, umr qanchalar bevafo va qish naqadar sovuq bo'lmasin, quvonish uchun hamisha sabab topiladi: kunlar qisqa va tezda oshiqib qaytgan insonning uyda, yillar sinovidan o'tgan, kutadigani bor, demoqchi bo'ladi. Zamonaviy dunyoning Yevropasi uchun orzu bo'lgan bu fenomen o'zbekchasiga aytganda, piru badavlat bo'lib qo'sha qarishning saodatidir.

Xulosa. Adrian Henrining she'rlari ana shunday hayotbaxsh – baxtni kuylaydi, tiriklikni tarannum etadi. Uning sevgi-muhabbat haqidagi she'rlari sehri bu she'rlarni qayta-qayta o'qiyotgan she'rxonni ham qayta-qayta asir etadi. U barcha she'rlarida o'zi haqida so'zlaydi. Shoir va lirik qahramon hamisha ham bir inson bo'lmasligi haqidagi nazariya uning she'rlariga mos kelmaydi. Uning she'rlarida, deyarli barcha hollarda shoir va lirik qahramon bir inson. Bu – shoirning o'zi. Adrian Henri o'zini avvalo avtobiografik shoir deb ataydi: "Men avtobiografik shoirman: mening she'rlarim o'z hayotimning davomi, ba'zilari faktlar, ba'zilari xayolot. Ehtimol, shu sababdan men hamma narsadan ko'ra ko'proq sevgi she'rlarini yozarman."² Shoir asosan o'z kechinmalari haqida yozsa-da, o'quvchiga o'zi timsolida insoniyatning teran hislarini anglashga imkon beradi.

² O'sha manba. 411-bet.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Bowen, P. A Gallery to Play to: The Story of the Mersey Poets. Liverpool. Liverpool University Press. Second Edition. 2008.
2. Henri, A. Contemporary Poets. Third Edition. St. James Press London., St. Martin's Press New York. 1988.
3. Henri, A. Selected and Unpublished Poems 1965-2000. Liverpool University Press. 2007.
4. Досбаева, Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни қайта тиклаш. (Америка ҳикоялари таржимаси мисолида). (10.01.07) ЎЗМУ, Тошкентб 2011. Номзодлик диссертацияси.
5. Лебедев, А. Ю. Творчество и стиль «Ливерпульских поэтов»// Вестник КГУ им. Н.А. Некрасова. № 3, 2016.
6. <http://www.wikipedia> free encyclopedia//Biography of Adrian Henry//